

YANGI O‘ZBEKISTONDA AVTOMOBIL SANOATI

Mahliyo Farxod qizi Toshtemirova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Baxrom Abdug‘anievich Saidusmonov

Ilmiy rahbar, Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrası
o‘qituvchisi

baxrom.said@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada yangi O‘zbekistonning avtomobil sohasida yuritayotgan yangicha siyosati haqida ma’lumot berilgan. Yangi O‘zbekistonda avtomobil sohasiga oid qarorlar tasdiqlanib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: sanoatlashuv, avtomobil, Harakatlar strategiyasi, erkin iqtisodiy zona, “talab va taklif”, “sabab va oqibat” dialektikasi

ABSTRACT

The article provides information about the new policy of the new Uzbekistan in the automobile sector. In the new Uzbekistan, decisions on the automobile industry are being approved and implemented step by step.

Keywords: industrialization, car, Action strategy, free economic zone, “demand and supply”, “cause and effect” dialectic

Tarix g‘ildiragi abadiy harakatlanish davrida kishilik jamiyatining turli-tuman shakllarini, tizim va tuzumlarini g‘altaga o‘rab bormoqda. Sikllik harakatlanib turgan jamiyat hayotida turli davlatlar turlicha ta’siri bilan ishtirok etadi. Har bir davlat o‘zi tanlagan yo‘ldan doimiy harakatlanib, ma’lum ma’noda rivojlanib yangilanib boradi. Ko‘pchilik davlatlar o‘z mohiyatidan kelib chiqqan holda jamiyat hayotini rivojlantirishda u yoki bu sohasi bilan hissa qo‘shadi. Jamiyat rivojida davlatlar ma’lum ob’yektiv va sub’yektiv omillarni inobatga olib, tizimning turli sohalariga turlicha e’tibor qaratadi. Chunki, davlatlarning sanoatlashuvi, sivilizatsiyasi, ijtimoiy, iqtisodiy holatlari rivojlanishi bir qator omillarga bog‘liq. Bular davlatlarning geografik, demografik, iqtisodiy, hududiy joylashuvi va boshqa jihatlarda o‘z ifodasini topadi. Bu esa turli davlatlarda tizimning turli sohaları drayverga aylanishi bilan



izohlanadi. Masalan, dunyoda eng ko‘p avtomobil ishlab chiqaradigan davlatlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak “2020 yilda birinchi o‘rinni 25 225 000 ta avtomobil ishlab chiqarib Xitoy egallab turibdi. Ikkinchi o‘rinni esa 8 822 000 ta avtomobil ishlab chiqargan AQSH egallagan. Uchinchi o‘rinni esa 8 068 000 ta avtomobil bilan Yaponiyaga nasib qilgan. To‘rtinchi o‘rin 3 742 000 ta avtomobil ishlab chiqargan Germaniyaga va beshinchi o‘rin 3 507 000 ta avtomashina bilan Janubiy Koreyaga”¹ taalluqli. Bu davlatlarda avtomobil sanoati juda rivojlangan.

MDH davlatlari, hususan, Rossiya, Belarussiya, Qozog‘iston, Litva, Latviya ham avtomobil sanoatiga alohida e‘tibor qaratadi. Bu borada “Rossiya Federatsiyasida 2030 yilgacha mo‘ljallangan avtomobil sanoatini rivojlantirish strategiyasi”² ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda ham yengil avtomobillar, yuk mashinalari, mikroavtobuslar va boshqa avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganligini 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

№	Nomi	1 yilda, ming dona
1.	“Uzauto Motors” - Asaka	300
2.	“Uzauto Motors” - Xorazm	60
3.	“Uzauto Motors” - Toshkent	10
4.	“SamAvto”	2.65
5.	“ManAutoUzbekistan”	3

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida avtomobil sanoatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Unda “-aholiga transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, yo‘lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtomobillarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish”³ nazarda tutilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”⁴gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

¹ Список стран по производству автотранспортных средств ru.wikipedia.org

² Транспортная стратегия Российской Федерации на период до 2030 года (Утверждена распоряжением Правительства Российской Федерации от 22 ноября 2008 г. N 1734-р (в редакции распоряжения Правительства Российской Федерации от 11 июня 2014 г. N 1032-р)

³ 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича Илмий-Услубий рисола, Тошкент-2017, 236-бет.

⁴ “Ўзбекистон Республикаси автомобиль sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Ўзбекистон Республикаси Президентининг



2019 yil 18 iyuldagi PQ-4397 sonli qarori Yangi O‘zbekistonda avtomobil sanoati rivojini davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishiga olib chiqdi. Natijada, Yangi O‘zbekiston avtomobil sanoatida bir qancha yangi avtomobillar ishlab chiqarish loyihalari yo‘lga qo‘yildi (2-jadval) va “2025 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida avtomobil sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi”⁵ loyihasi ishlab chiqildi. Ayniqsa, Farg‘ona viloyati “Қўқон” ЭИЗ (erkin iqtisodiy zonasi) hududida ishlab chiqariladigan elektromobil zavodi qurilishi O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoati rivojida tub burilish yasashi kutilmoqda.

2-jadval

№	Nomi	1 yilda, ming dona	Loyiha qiymati, mln. dollar
1.	“Navoi-Motors” XK	12	12
2.	“Manasavto-sanoat” MЧЖ	3	10
3.	Namangan Changan Motors	1.8	5.8
4.	“ADM Jizzakh” MЧЖ	100	60.9
5.	“AvtoMotors Asia” MЧЖ	27	16.2
6.	“Abbos-Eco Agro” MЧЖ	10	30
7.	“Hyundai Motor UZ Namangan” MЧЖ	3	200
8.	“Қўқон” ЭИЗ	10	300
Jami:		166.8	634.9

Yangi O‘zbekistonda avtomobil sanoati rivojlantirishning va huquqiy asoslari “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmonida o‘z ifodasini topgan. Farmonning 36-maqsadi yagona transport tizimini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekistonda avtomobil sohasini rivojlantirish bizdan quyidagilarga e‘tibor qaratishni talab etadi:

- avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini inobatga olib, sohani rivojlantirish bilan bog‘liq loyihalar va ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq;
- “2025 yilgacha O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi” maqsadlari bilan bog‘liq amaliy taklif va xulosalar berish;

қарори. Қонун ҳужжатлари
маълумотлари миллий базаси, 19.07.2019 й., 07/19/4397/3449-сон; 31.12.2020 й.,
07/20/4938/1680-сон.

⁵ “2025 йилгача Ўзбекистон Республикаси автомобиль саноатини ривожлантириш
концепцияси” лойиҳаси <https://regulation.gov.uz/uz/document/4087>



- soha taraqqiyotini yuksalishi uni o'tmishi qay darajada o'rganib, kelajagi haqida yaqqol bashorat qilinishiga bog'liq. Bashorat qilish soha tarixini titishni talab etadi. Har bir soha kelajagi rivojini ta'minlashga uni o'tmishini o'rganish, tahlil qilish, sintezlash va xulosa chiqarish orqali erishiladi. Demak, sohani rivojlantirish uni tarixini o'rganishdan boshlanadi;
- bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning oltin qoidasi "talab va taklif" ga asoslangani singari tizimning ba'zi sohalari ham falsafiy izohlangan "sabab va oqibat" dialektikasi kabi bog'liqlik kasb etadi. Jumladan, transport va yo'l qurilishi sohasini ham ushbu turkumga kiritsak mubolag'a bo'lmaydi;
- avtomobil sohasi rivojlanishi sababli yo'l qurilishiga ehtiyoj ortadi. Demak, ushbu ikki sohaga parallel e'tibor qaratish talab etiladi.

REFERENCES

1. Список стран по производству автотранспортных средств ru.wikipedia.org
2. Транспортная стратегия Российской Федерации на период до 2030 года (Утверждена распоряжением Правительства Российской Федерации от 22 ноября 2008 г. N 1734-р (в редакции распоряжения Правительства Российской Федерации от 11 июня 2014 г. N 1032-р)
3. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили" да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича Илмий-Услубий рисола, Тошкент-2017, 236-бет.
4. "Ўзбекистон Республикаси автомобиль саноатини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.07.2019 й., 07/19/4397/3449-сон; 31.12.2020 й., 07/20/4938/1680-сон.
5. "2025 йилгача Ўзбекистон Республикаси автомобиль саноатини ривожлантириш концепцияси" лойиҳаси <https://regulation.gov.uz/uz/document/4087>

